

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA YO‘RIQCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI.

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va
texnologiyalar universiteti,
katta o‘qituvchisi **Ch.B. Nalibayeva**

METHODS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF GUESTS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT.

Tashkent International University of Financial
Management and Technologies,
Senior Lecturer, **Ch.B. Nalibayeva**

Annotatsiya. Maqolada pedagogika fani mazmuni, kompetentlik va kasbiy kompetentlik tushunchasi, zamonaviy o‘qitish metodlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, fan, taraqqiyot, pedagog, metodika tushunchalari izohi, ularning o‘zaro bog‘lanishi.

Абстрактный. В статье рассматриваются содержание педагогики, понятия компетентности и профессиональной компетентности, современные методы обучения.

Ключевые слова: разъяснение понятий образования, науки, развития, педагога, методики, их взаимосвязь.

Abstract. The article examines the content of pedagogy, the concepts of competence and professional competence, modern teaching methods.

Keywords: explanation of the concepts of education, science, development, teacher, methodology, their relationship.

Hozirgi globallashuv jarayonida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga o'qitishning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi",-deb ta'kidladi [1]. Ushbu g'oyaning ko'tarilishi "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari"diya belgilangan ulug' g'oyaning belgilanishi davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta'limning utuvor deb e'lon qilinshi har bir pedagog zimmasiga mas'uliyatli vazivalarni yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-392- sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish va jismoniy tarbiya fani yo'riqchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning kasbiy va jismoniy mahoratini muntazam oshirib borishni yo'lga qo'yish maqsadi qilindi:

-jismoniy tarbiya fani yo'riqchilari uchun o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqish;

-O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti bilan hamkorlikda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy mahorati va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish;

-jismoniy tarbiya yo'riqchilari tarkibiga mahoratli sportchilarni jalb etish; jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga malaka toifasi berishning yangi tartibini ishlab chiqish;

-o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida maktab sport klublari faoliyatini yo'lga qo'yish;

-jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimini ishlab chiqish;

Ya'ni kasbiy mahoratining to'rt muhim jihati deb quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Motivatsion-ixtiyoriy komponent (motivlar, maqsadlar, ehtiyojlar va qadriyatlar);

2. Funktsional komponent (ma'lum bir faoliyat usullari haqidagi bilimlar);

3. Kommunikativ komponent (fikrlarni to'g'ri ifoda etish, tahlil qilish, ishontirish, gapirish, muloqotni tashkil qilish va axborotni uzatish qobiliyati);

4. Refleksiv komponent (o'z faoliyati natijalarini boshqarish va baholash qobiliyati).

Demak, professionallik tushunchasi bo'yicha quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin:

- ma'lum bir kasbiy faoliyat turi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalarni o'z ichiga oladi;

- umumiy va qiyin vaziyatlarda atrofdagi voqelikni aniq anglash, shuningdek, kasbiy muammolarni hal etish san'atining puxta egallanganligi kabilarni.

Rus olimlari: S.T. Vershlovskiy i Yu.N. Kulyutkin kompetentlikni shaxs tavsifi bo'yicha o'rgangan bo'lsalar, V.Yu.Krichevskiy, A.V.Xutorskiy – shaxs faoliyatidagi maqsadlarni amalga oshirish ko'rsatkichlarini tadbiq etadilar.

Akademik V.A.Slastenin kompetentlikni – shaxsning kommunikativlik, muloqatmandlik, konstruktivlik, tashkilotchilik qobiliyatlari majmui sifatida tadbiq etdi. Shuningdek, mavzu doirasida yana bir qator tadqiqotlar olib borilgan: faoliyatning umumiy predmeti haqidagi g‘oyalar (K.A.Abulxanova Slavskaya, B. G. Ananiyev, A. V. Brushlinsky, A. L.Zhuravlev, I. A.Zimnyaya, V. S.Merlin, A. Rubinshteyn, V. A. Slastenin va boshqalar);

Malaka oshirish tizimida yo‘riqchilar kompetensiyasi – o‘z mutaxassisligi va ixtisosligi doirasida bilim ko‘nikma, malakaga ega bo‘lishi bilan belgilanadi va shaxsiy qadriyatlari, sifatleri, kvalifikatsiyasining namoyon bo‘lishida ifodalanadi. Quyidagilar ta‘lim tarbiya jarayonida mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta‘minlaydigan asosiy talablari hisoblanadi:

- pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo‘lish, o‘z ustida ishlash, ta‘lim jarayonini rejalashtirish, baholash qayta aloqani o‘rnatish;

- taxsil oluvchilarda didaktik motivatsiyani shakllantirish taxsil oluvchi shaxsining rivojlanish xususiyatlarini bilish;

- AKT va xorij tillarini o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llay olish; umuminsoniy va umummadaniy qadriyatlardan xabardor bo‘lish va ulardan faoliyati mobaynida foydalanish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;

- ta‘lim muhitiga yangilik kiritish, o‘z fanini mukammal bilish; muloqatmandlik, bag‘rikenglik, empatiyaga moyillik, etakchilik, faollik va tashabbuskorlik, mas‘uliyatlilik;

- o‘z faoliyatini taxlil qilish, kompetentlik samarasini rejalashtirish, maqsad va vazifa belgilash, bashorat (prognoz) qilish, o‘zini namoyon eta olish, kamchiliklarni tuzatish va boshqalar.

Xulosa sifatida jismoniy tarbiya yo'riqchilarining kasbiy mahoratini takomillashtirilishi, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda ta'lim modullari bo'yicha innovatsiyalar, zamonaviy uslublarda, bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish bilan bir qatorda mehnat bozoridagi o'zgarishlarga binoan, shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbiy mahorat, bilim va ko'nikmalarni yangilashda, professional treninglarning ilg'or texnologiyalari, zamonaviy fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlarini tanlash va amaliyotda qo'llash, tinglovchilarni passiv iste'molchidan, faol ishtirokchi sifatida kasbiy, metodik faoliyatlariga munosabatlarini zamon talablariga mos ijobiy o'zgartirish va moslashtirish, takomillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev S.X., Musurmanova R. Pedagogik tajriba sinov jarayoni samaradorligi // Xalq ta'limi jurnali. – Toshkent, 2008. - №5. - 18-20-b.
2. Abdullayev S.X., Musurmanova R. Pedagogik tajriba sinov ishlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jixatlari // Maktab va Xayot jurnali. – Toshkent, 2008. - №7-8. - 29-30-b.
3. Voronina Ye.V. Nauchnaya organizatsiya pedagogicheskogo truda. Pedagogicheskaya ergonomika. Uchebnoye posobiye dlya akademicheskogo bakalavriata. Moskva-Yurayt-2017g.
4. Gershunskiy B.S. Filosofiya obrazovaniya. - M.: Flinta, 1998. - 428s.
5. Golish L.V. Pedagogicheskiye texnologii: sodержaniye, proyektirovaniye, realizatsiya. Ekspress-posobiye. T.: IRSSPO. 2001. – 60s.
6. Kuindji N.N. Valeologiya: Puti i sposoby formirovaniya zdoro-vya shkolnikov: Metodicheskoye posobiye. - M.: Aspekt Press, 2000. - 139 s. 40.

7. Lebedeva N.T. Shkola i zdorovye uchащixsya. - Minsk: Ushverspenkaye, 1998.-220 s